



UDK:94(575.1)

Jamshid PIRIMQULOV,

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali, Toshkent muzeyi bo'lim mudiri, PhD, katta ilmiy xodimi

E-mail: jamper180888@gmail.com

Milliy rassomchilik va dizayn instituti professori, t.f.d. DSc M.Muxamedova taqrizi asosida

SOVET HUKUMATINING SANOAT SHAHARLARI TASHKIL QILISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

Annotation

Maqolada sovet davrida Toshkent viloyatida sanoat shaharlarining tashkil etilish tarixi, tabiiy zahiralari va ularni qayta ishlash hamda foydalanish butkul markaz ixtiyorida bo'lganligi hamda muttasil tashib ketilganligi, buning oqibatida yuzaga kelgan muammolar yangi, ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Xususan, iqtisod va boshqaruv tizimi o'ta markazlashtirilgan sharoitda respublikaning boy tabiiy va iqtisodiy resurslari o'z ixtiyorida bo'lmaganligi, O'zbekiston tom ma'noda xomashyo bazasiga aylanganligi, buning natijasida yuzaga kelgan muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xomashyo, markazlashtirish, mashinasozlik, kimyo sanoati, og'ir sanoat, konchilik, Angren ko'mir koni, O'zbekiston metallurgiya kombinati, Olmaliq tog' metallurgiya kombinati va b.

СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА СОЗДАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРОДОВ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ. (НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В статье на основе ранее не опубликованных архивных документов и статистических данных раскрывается история создания промышленных городов в Ташкентской области. Выявленными фактами обосновывается то, что природные ресурсы, их переработка и использование полностью находились в распоряжении центра, и эти ресурсы регулярно транспортировались за пределы республики. В результате Узбекистан был превращен в сырьевую базу центра.

Ключевые слова: Сырье, централизация, машиностроение, химическая промышленность, тяжелая промышленность, добыча полезных ископаемых, угольный разрез Ангрен, Узбекский металлургический комбинат, Алмалыкский горно-металлургический комбинат и др.

SOVIET POLICY ON ESTABLISHING OF INDUSTRIAL CITIES AND ITS CONSEQUENCES. (ON THE EXAMPLE OF THE TASHKENT REGION)

Annotation

On the basis of previously unpublished archival documents, the article reveals the history of the establishment of industrial cities in the Tashkent region during the Soviet era, the fact that natural resources and their processing and use were entirely at the disposal of the center and constantly transported. In particular, in the conditions of highly centralized economy and management system, the rich natural and economic resources of the republic were not at its disposal, Uzbekistan became a real raw material base, and the resulting problems were analyzed.

Key words: Raw materials, centralization, machine building, chemical industry, heavy industry, mining, Angren coal mine, Uzbekistan Metallurgical Combine, Almalyk Mining and Metallurgical Combine, etc.

Dolzarbli. Shaharlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy-tadrijiy taraqqiyot maxsuli bo'lib, ularning ravnaqi yoki tanazzuli jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoriga chambarchas bog'liq. Jumladan, mamlakatimiz hududidagi shaharlar qadimdan savdo, hunarmandchilik, fan va madaniyat markazlari sifatida bashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelgani bilan bir qatorda turli iqtisodiy hamda siyosiy vaziyat ta'sirida ziddiyatli shakllanganini kuzatish mumkin. Ularni tarixiylik nuqtai nazaridan taxlil qilish esa, davr ruhiyatini ochib berishda yordam beradi. Shuningdek, bugungi kunda shaharlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va xatto madaniy jarayonlar negizini aniqlash hamda ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish shaharlarning keyingi taqdirini belgilashda ayni muddao bo'lishi shubhasiz.

Shu asnoda, mazkur maqolada sovet hukumati boshqaruvi yillaridagi iqtisodiy islohotlarni davriy izchillikda ko'rib chiqish orqali ularning shaharlarga ta'sirini anglash mumkin bo'ladi. Shu jihatdan, tadqiqotda o'tgan asrda sovet hukumati tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlar

Toshkent viloyati sanoat shaharlari misolida ularning ziddiyatli rivoji ochiqdan ochiq maqsad qilib olindi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Izlanish jarayonida tarixiy solishtirma, statistik, xronologik izlanish usullaridan foydalanildi. Ayniqsa, kogort usuli samarali bo'ldi. Kogort taxlil uchun shaharda ishlab chiqarilgan maxsulotlar turi bo'yicha va har bir korxona tomonidan tayyorlangan maxsulotlar qismlarga ajratildi. Ularni yillar kesimida taxlil qilish orqali shaharlarning sovet hukumati boshqaruvi davridagi salohiyati ko'rsatib berildi. Bunda ishlab chiqarilgan maxsulot sonini dinamikada ko'rsatish imkonini paydo bo'ldi. Bundan tashqari, solishtirma statistik, matematik hamda ijtimoiy taxlil usullaridan ham foydalanildi.

Mamlakatimizda shaharlar tarixini o'rganish hamma davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'rib chiqilayotgan yillarda Toshkent viloyati shaharlari tarixini o'rganish masalalari bo'yicha qator monografiyalari, ko'plab ommabop asarlar va tadqiqotlar yuzaga keldi.

Shaharlar tarixi bilan bir qatorda, u yerdagi demografik vaziyat, shaharlardagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog'liq turli fan sohalarida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular orasida tarix yo'nalishi voqealar ketma ketligiga asoslanishi, uzviylikda o'rganilishi bilan ajralib turadi. O'rganilayotgan hudud shaharlari haqidagi ilmiy izlanishlar asosan geografiya, demografiya, sotsiologiya, iqtisod, tarix kabi fan tarmoqlari doirasida amalga oshirilganligini qayd etib o'tish lozim.

Sovet hokimiyati boshqaruvi yillarida yangi tashkil etilgan resurs shaharlarni tadqiq etishda hukumat olib borgan siyosatni qo'llab quvvatlash, siyosiy rahnamolarning belgilab bergan vazifalari doirasidan chekkaga chiqmaslik kabi masalaning mafkuraviy jihatiga ko'proq e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Hususan, 1974 yilda chop etilgan O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati haqidagi risolada [9] resurs shaharlari hususida ham ma'lumotlar qayd etilgan bo'lib, ushbu asarni kommunistik partiya tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar ijrosi sifatida baholash mumkin.

Sovet boshqaruvi yillarida respublikadagi, hususan tadqiqot ob'ekti bo'lmish Toshkent viloyati bo'yicha ilmiy izlanishlar ham olib borilgan bo'lib, ularda shaharlardagi aholi soni, ishlab chiqarishdagi ulushi, sanoat korxonalari faoliyati bilan bog'liq statistik ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan [8]. Shuningdek, bu davrda iqtisodiy taxlilga bag'ishlangan ilmiy asarlar ham chop etilgan bo'lib, ularda masalaning iqtisodiy ahamiyati, resurs shaharlar taraqqiyoti, aholisining soni, ishlab chiqarishi kabi jihatlar qamrab olingan [9; 10].

Mustaqillik yillarida ham ushbu masala yuzasidan turli izlanishlar olib borildi. Ularda sovet hukumati boshqaruvi yillarida shaharlar vujudga kelishiga asos bo'lgan tarixiy jarayonlar, ishlab chiqarish, shahardagi korxonalar faoliyati kabi masalalar o'rin oldi. Bundan tashqari, ushbu masala har bir shaharning yubileyi munosabati bilan nashr etilgan adabiyotlarda ham aks etdi [12].

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Markaziy Osiyoda nafaqat qulay geografik joylashuvi, qadimiy sivilizatsiya markazi sifatida, balki tabiiy-iqtisodiy resurslari, intellektual salohiyati, yuksak madaniyati bilan mintaqada hamisha alohida o'rin tutib kelgan. Bu imkoniyatlar va salohiyat tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida boshqa davlatlar e'tiborini jalb qilib, yurtimizga ko'plab tajovuzlar uyushtirilishiga va boyliklarining talon taroj qilinishiga sabab bo'ldi.

So'nggi 120 yillik mustamlakachilik davrida ham bu holat yaqqol namoyon bo'ldi. O'tgan asrning 20-30-yillarida O'zbekiston hududida sovet hokimiyati tomonidan uyushtirilgan geologik ekspeditsiyalar ham shu maqsadga yo'naltirilgan edi. Ushbu ekspeditsiyalar natijasida Toshkent atrofidagi tog'li hududlar mis, uran, oltin, ko'mir va boshqa mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tabiiy xomashyolarga boy ekanligi, Chirchiq daryosining aylanma harakati arzon elektr manbaiga asos bo'lishi aniqlandi. Shu xulosalar asosida resurslardan unumli foydalanish maqsadida Toshkent vohasida dastlab elektrenergriyaga ixtisoslashgan Chirchiq (1935), keyingi yillarda esa, tog'-kon sanoatiga asoslangan Bekobod (1945), Angren (1946), Olmaliq (1951) kabi sanoat shaharlari vujudga keldi.

Urushdan keyingi yillarda ham sovet hukumati xalq xo'jaligi nazoratini o'z qo'lida saqlash maqsadida avvalgi yillarda samara bergan ma'muriy buyruqbozlik usulidan foydalanishni davom ettirdi. Ushbu jarayonda eng avvalo, mamlakat bo'ylab yirik sanoatni vujudga keltirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada, O'zbekistonda ham sanoat uchun zarur islohotlar olib borildi. Xususan, 1945 yildan boshlab, respublikadagi mashinasozlik korxonalari qishloq xo'jaligi texnikalari uchun shinalar, kimyo sanoati korxonalari o'z navbatida qishloq xo'jaligi uchun tabiiy o'g'itlar ishlab

chiqara boshladi. Bundan tashqari, o'lkadagi og'ir sanoat korxonalari ham xalq xo'jaligiga yo'naltirildi.

Sovet hukumati mamlakatdagi barcha ishlab chiqarish tarmoqlari boshqaruvi davlat nazoratida saqlash uchun o'ziga xos tizimni yo'lga qo'ygan edi. Unga ko'ra, respublikalardagi ishlab chiqarish kuchlari boshqa hududdagi sanoat mahsulotlariga bevosita qaram bo'lishi talab etilar edi. Bundan tashqari, korxonalar faoliyati uchun zarur xomashyo miqdori ham davlat tomonidan belgilab qo'yilgan edi. Ushbu jarayon 1923 yildan faoliyati yo'lga qo'yilgan Davlat reja qo'mitasi ("Gosplan") hamda 1948 yilda tashkil etilgan Moddiy va texnik ta'minot bo'yicha davlat qo'mitasi ("Gossnab") orqali boshqarilar edi [1]. Mazkur idoralar tuzilmasi sovet hukumati boshqaruvi davrida bir necha bor o'zgartirilishiga qaramay, umumiy iqtisodiy qonuniyatlarni chetlab o'tolmadi. Oqibatda mamlakatdagi barcha korxonalarda ishlab chiqarish bilan bog'liq jiddiy muammolar kuchayib bordi.

Shuning bilan bir qatorda sovet hukumati sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hamda uni taqsimlash vazifasini bevosita respublika ixtiyoridan olib qo'ygan edi. Ushbu jarayon sovet hukumati tomonidan ishlab chiqilgan o'ziga xos tizim asosida olib borildi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston hududidagi og'ir sanoatga ixtisoslashgan korxonalar ish faoliyatining tashkil etilishi masalasi Angren shahridagi ko'mir sanoati korxonalari misolida ko'rib chiqish mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Bekobod hududida tayyorlangan sement mahsulotlari asosan, respublikada qurilgan yangi yirik inshootlar xususan, Farxod GES, yirik sanoat korxonalari, ishlab chiqarish muassasalariga yo'naltirilgan.

Shuningdek, ushbu korxonalar uchun kadrlar tayyorlash tizimi ham urushdan keyingi yillarda biryoqlama kechdi. Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari uchun ishchilarning katta qismi Moskvadan markaz buyrug'i bilan ko'chirib keltirilgan aholi vakillari xissasiga to'g'ri kelar edi. Bunday tizimni vujudga kelishi avvalo, rejaga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tufayli, imkon qadar tez fursatda ko'proq mahsulot tayyorlanishi zaruriyatidan mahalliy kadrlarni yetishtirish uchun vaqt ham, mablag' ham ajratilmaganligi bilan bog'liq edi [2]. Bu o'z navbatida, yangi tashkil etilgan resurs shaharlar aholisi ham asosan ko'chirib keltirilgan aholi vakillaridan iborat bo'lishiga olib keldi.

Masalaning yana bir jihati korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari urushdan avvalgi davrga mansub bo'lib, xorijiy asbob-uskunalariga nisbatan 15-20 yil ortda qolgan edi [15]. Umuman, ishlab chiqarishda ishchilar juda og'ir sharoitlarda mehnat qilar edilar. Masalan, urushdan keyingi dastlabki bosqichda metallurgiyada hali hanuz kislorod orqali portlatish usuli qo'llanilmay kelar edi, ko'mir ochiq usulda qo'lga kiritilar, boshqa tarmoq korxonalarida ham qo'l mehnati ustunlik qilar, uskunalar avtomatlashmagan edi. Bu qoloqlik fan va texnikani ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanmaganligi oqibati edi. Ushbu jarayon keyingi yillarda shaharlardagi ekologik muvazanatning buzilishi, tog' ko'chkilari singari bir qator muammolarni yuzaga keltirdi.

Og'ir mehnat sharoitidagi ishchilarni korxonalarda muqim ushlab turish uchun hukumat tomonidan zarur choralar ishlab chiqilgan edi [16]. Jumladan, 1945 yilda qabul qilingan qarorga ko'ra, ko'mir, metallurgiya, kimyo kabi sanoat korxonalarida faoliyat olib borayotgan ishchilar hujjatlarini olib qo'yish, uning o'miga maxsus guvohnoma taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bordi-yu, ishchilar ishdan bo'yin tovlasa yoki ish joyini sababsiz tark etsa, 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi qo'llanilishi mumkin edi.

Bundan tashqari, ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoda yuzaga kelgan "sovuq urush" tufayli sovet hukumati qurollanish poygasiga mamlakatni jalb etishi ham iqtisodga

o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, asosiy ishlab chiqarish kuchlarining harbiy sohaga yo'naltirilishi bilan yillar davomida xalq xo'jaligida kamomad kuchayib bordi.

1960-yil o'rtalariga kelib, sovet hukumati tomonidan joriy qilingan iqtisodiy islohotlar O'zbekiston sharoitida markazlashuvdan chekinishga emas, balki markazga qaramlikni kuchayishiga olib keldi. Natijada, sanoat shaharlaridan mahsulotlarni olib ketilishi yil sayin ortib bordi.

Ishlab chiqarish hajmi ortib borsa-da, texnologiyalar yangilanmagan edi. Chirchiq shahridagi sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan deyarli barcha mahsulotlar kuchli kimyoviy tarkibga ega bo'lib, ulardan hosil bo'lgan chiqindilarni ushlab qoluvchi qurilmalar urushdan keyingi yillarda o'rnatilgan edi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati oshib borgani sari, ekologik qurilmalarning quvvati kuchsizlanib bordi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishda energiya ta'minoti bilan bog'liq uzilishlar ham korxonalarining muttasil ishlashida to'siq bo'lib keldi. Xususan, 1986 yilga oid hujjatlarda Chirchiq sanoat zonasidagi aksar korxonalar faoliyati gaz yoqilg'isiga bog'liq bo'lganligi bois, Muborak gazi qayta ishlash zavodidagi texnologiyalarning eskirganligi oqibatida gaz ta'minotida uzilishlar tez-tez sodir bo'lib turganligi qayd etilgan [6].

Shu va boshqa omillar ta'sirida sanoat shahrida ishlab chiqarish hajmi 1980 yillar o'rtalaridan boshlab keskin qisqarib bordi [4]. 1987 yilga kelib esa, ba'zi korxonalarda ishlab chiqarish butkul to'xtab qolib shahar byudjeti 6.745.000 so'mga zarar ko'rgan [4]. Birgina Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatida 1986 yilga kelib, ishlab chiqarish 1984 yilga nisbatan 30 foizga tushib ketgan edi.

Bundan tashqari, korxonalar uchun zarur ehtiyoq qismlari boshqa respublikalardan o'z vaqtida yetkazib berilishida ham muammolar yuzaga keldi. Masalan, Angren shahridagi "O'zbek kon qurilish" shirkati 6-qurilish boshqarmasi g'isht teruvchi bo'linmasining 1986 yilgi hisobotlarida shahardagi qurilishlar uchun korxona balansiga 700 dan ortiq turli asbob-uskunalarining o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi aks etgan [7]. Bunday betartibliklar tufayli respublika byudjeti katta zarar ko'rgan edi. 1990 yillar boshiga kelib, Angren shahridagi sanoat korxonalarining ish hajmi yanada kamayib ketdi [17].

Xulosalar. Sovet davrida sanoat shaharlaridagi infratuzilmalar, uy-joy qurilishi, shahar byudjeti, xo'jalik ta'minoti, xatto, shahar aholisini zaruriy xo'jalik mollari bilan ta'minlanishi ham bevosita ishlab chiqarish xajmiga bog'liq edi.

Shu bois ishlab chiqarish o'sib borgan davrda shahar byudjeti va ta'minotida muammolar kuzatilmagan bo'lsa-da, ammo keyinchalik, XX asrning 50-60-yillarida ishga tushirilgan qurilmalar eskirishi, tabiiy resurslarning xo'jasizlarcha qazib olinishi, iqtisodiyotga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ishlab chiqarish turg'unlikka uchrashi bilan sanoat shaharlarida ishsizlik, taqchilik, inqiroz holatlari yuzaga keldi. Istiqlool arafasida O'zbekistondagi sanoat shaharlari mana shunday meros bilan qoldi.

Shu tariqa sovet davrining so'nggi yillariga kelib, Toshkent viloyatidagi sanoat shaharlarida ishlab chiqarishda inqiroz holati yaqqol namoyon bo'ldi. Bu holat yuqorida qayd etilgan omillar bilan bog'liq bo'lib, sovet iqtisodiy siyosati inqirozining kuchayishiga sabab bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. O'z MA. 2117-jamg'arma, 1-ro'yxat, 332-yig'majild.
2. O'z MA. 2117-jamg'arma, 1-ro'yxat, 385-yig'majild.
3. TVDA. 394-jamg'arma, 3-ro'yxat, 98-yig'majild, 15-varaq.
4. Olmaliq ShDA. 265-jamg'arma, 2-ro'yxat, 1-yig'majild, 17-varaq.
5. Bekobod ShDA. 80-jamg'arma, 1-ro'yxat, 246-yig'majild, 7-varaq.
6. Chirchiq ShDA. 2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 862-yig'majild, 2-bet.
7. Angren ShDA. 136-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 8-varaq.
8. "Правда Востока". 20-сентябрь, 1949.
9. Qoraboyev S. O'zbekistonda lenincha industrilashtirish tajribasidan (1925-1941 yillar). Toshkent: "O'zbekiston", 1974.
10. История новых социалистических городов Узбекистана (Ташкентская область). (Отв. ред. д.и.н. Г.Р. Рашидов). - Ташкент: "Фан", 1976.
11. Savchenko N. Jalilov A. Chirchik. - Tashkent: "O'zbekiston", 1980.
12. Nasriddinov J., Bobonazarov A., Boymurodov A., Sodiqov B. Sayxun sohilidagi shahar. (Mas'ul muharrir: N. Umarov) Toshkent: "O'zbekiston", 1995.
13. Сигедин В.Н. Алмалыкская жемчужина. - Ташкент: "Шарк", 1999.
14. Hasanov A., Topilov T., Asqarov M., Ataxanov A. Ko'xna va navqiron Olmaliq. Toshkent, 2000.
15. Самохин М.Ю. Экономическая история России. — Москва: ГУ ВШЭ, 2001.
16. Литвиновский И. А. Восстановление народного хозяйства СССР после Великой Отечественной войны // Российские и славянские исследования: Сб. науч. статей. Вып. 1 / Редкол.: О. А. Яновский (отв. ред.) и др. — Мн.: БГУ, 2004. — С. 229
17. Костецкий В. Ангрэн – город из легенды. Ангрэн: "Zarqalam", – 2006.
18. Hasanov A., Mirzaqulov T. Istiqlool: tarix va taqdir. Toshkent, 2010.